



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИБ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Шоҳистахон Улжаева</b> ТАРИХИЙ ЙЎЛЛАР ЧОРРАҲАСИДА: АМИР ТЕМУР ВА ТЎХТАМИШХОН.....	5
<b>2. Jummagul Abduraxmanova</b> Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti TOTALITAR TUZUM VA TA'LIM TIZIMIDAGI HOLAT (1925–1941 yillar).....	10
<b>3. Гулнара Жолдасбаева</b> ТНОГРАФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА «КОБЛАН».....	17
<b>4. Dilshod Abdullayev</b> 1946-1958-YILLAR O'ZBEKISTON SSRDA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIDAGI VAZIYAT.....	23
<b>5. Фарзия Ансорова</b> ЗВАНИЯ И ДОЛЖНОСТИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ТРУДЕ «ТАЪРИХИ САЛИМЎЙ» МИРЗО МУХАММАДА САЛИМБЕКА.....	28
<b>6. Faxriddin Yormatov</b> O'ZBEKISTONDA NURONIYLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB QUVVATLASHNING IJOBIY NATIJALARI.....	37
<b>7. Шаходат Зайниддинова</b> ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ В СИСТЕМЕ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	43
<b>8. Muborak Matyakubova</b> XIVA XONLIGIDA IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGI: IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI.....	49
<b>9. Diloram Ziyayeva</b> IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOY, SIYOSIY-IQTISODIY HAYOTI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI.....	55
<b>10. Farxod Ziyayev</b> XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MOHIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK.....	60
<b>11. Shaxodat Ruzmatova</b> XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI AHOLISINING IJTIMOY TUZILISHI.....	65
<b>12. Fotima Shirinova</b> TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT.....	71



**Dilshod Xayitovich Abdullayev,**  
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi  
dilshodabdullayev2025@gmail.com  
<https://orcid.org/> - 0009-0001-4582-5474

## 1946-1958-YILLAR O‘ZBEKISTON SSRDA O‘RTA MAXSUS TA’LIM TIZIMIDAGI VAZIYAT

**For citation:** Dilshod Kh. Abdullayev. THE SITUATION IN THE SYSTEM OF SECONDARY SPECIAL EDUCATION IN THE UZBEK SSR IN 1946–1958. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 10.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548859>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda mahalliy millat vakillarini o‘rta mahsus o‘quv yurtlari (uchilisha va texnikumlar)ga o‘qishga tortish jarayonidagi qiyinchiliklar, ayniqsa, qiz bolalarni ta’lim jarayoniga tortish qiyin kechgani, bu davrda ota-onalarni o‘z farzandlarini balog‘atga yetmasdan turmushga uzatilishi natijasida o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida taxsil olayotgan o‘zbek qizlarining o‘quvchilar umumiy kontingentida juda oz foizni tashkil etganligi Andijon, Namangan, Qashqadaryo viloyatlaridagi o‘rta maxsus o‘quv yurtlari o‘quvchilar kontingenti misolida ochib berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston SSRda o‘rta maxsus hamda oliy ta’lim muassasalarini tashkil yetish, ular faoliyatini yo‘lga qo‘yishda o‘ziga xos bo‘lgan jihatlar, aholi zichligi va soniga nisbatan o‘rta maxsus hamda oliy ta’lim muassasalarining kamligi, qabul kvotalarida mavjud demografik holat xisobga olinmaganligi oqibatida o‘rta maktablar bitiruvchilarining katta qismining o‘rta maxsus hamda oliy ta’lim muassalriga tortilmay qolganligi dalillar asosida asoslangan.

**Tayanch so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, bolalar muassasalari, o‘qituvchi, o‘quvchi yoshlar, pedagog kadrlar, texnikum, maorif muammolari, bilim yurtlari, kadrlar tayyorlash masalalari, hijjatlar to‘plami, xotin-qizlar salmog‘i, ta’lim jarayonlari, mehnat rezervlari, xalq maorifi, sirtqi ta’lim, kechki ta’lim, oliy ta’lim tizimi, harbiy bilim yurtlari, hunar maktablari.

---

**Дилшод Хайитович Абдуллаев,**  
Научный сотрудник Каршинского  
государственного университета  
dilshodabdullayev2025@gmail.com  
<https://orcid.org/> - 0009-0001-4582-5474

## ПОЛОЖЕНИЕ В СИСТЕМЕ СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКСКОЙ ССР В 1946–1958 ГОДАХ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются трудности привлечения представителей местных национальностей в средние специальные учебные заведения (университеты и техникумы) в

первые годы после Второй мировой войны, особенно трудности привлечения девушек к образовательному процессу, а также тот факт, что в этот период в результате выдачи родителями замуж своих детей до достижения ими половой зрелости узбекские девушки, обучающиеся в средних специальных учебных заведениях, составляли весьма незначительный процент от общего контингента студентов на примере контингента студентов средних специальных учебных заведений Андижанской, Наманганской и Кашкадарьинской областей.

Также приводятся данные о том, что особенности организации средних специальных и высших учебных заведений в Узбекской ССР, специфика их деятельности, небольшое количество средних специальных и высших учебных заведений по отношению к плотности и численности населения, неучёт сложившейся демографической ситуации при установлении квот приёма привели к тому, что значительная часть выпускников средних школ не была привлечена в средние специальные и высшие учебные заведения.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, детские учреждения, воспитатели, учащиеся, педагогические кадры, техникум, проблемы образования, образовательные учреждения, вопросы подготовки кадров, комплекс требований, женский и мужской вес, образовательные процессы, трудовые резервы, народное образование, заочное обучение, вечернее обучение, система высшего образования, военные учебные заведения, профессиональные училища.

---

**Dilshod Kh. Abdullayev,**

Researcher, Karshi State University  
dilshodabdullayev2025@gmail.com

[https://orcid.org/ - 0009-0001-4582-5474](https://orcid.org/0009-0001-4582-5474)

## THE SITUATION IN THE SYSTEM OF SECONDARY SPECIAL EDUCATION IN THE UZBEK SSR IN 1946–1958

### ABSTRACT

This article describes the difficulties in attracting representatives of local nationalities to secondary specialized educational institutions (universities and technical schools) in the first years after the Second World War, especially the difficulties in attracting girls to the educational process, and the fact that during this period, as a result of parents marrying off their children before they reached puberty, Uzbek girls studying in secondary specialized educational institutions constituted a very small percentage of the total contingent of students, using the example of the contingent of students in secondary specialized educational institutions in Andijan, Namangan, and Kashkadarya regions.

It is also based on evidence that the organization of secondary specialized and higher educational institutions in the Uzbek SSR, the specific aspects of their operation, the small number of secondary specialized and higher educational institutions in relation to the population density and number, and the failure to take into account the current demographic situation in admission quotas resulted in the fact that a large part of secondary school graduates were not attracted to secondary specialized and higher educational institutions.

**Index Terms:** preschool education, children's institutions, teachers, students, pedagogical personnel, technical school, educational problems, educational institutions, personnel training issues, set of requirements, female and male weight, educational processes, labor reserves, public education, correspondence education, evening education, higher education system, military educational institutions, vocational schools.

---

### Kirish. (Introduction)

Sovet hokimiyati yillarida Oʻrta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish oʻtkazilgandan keyin Oʻzbekistonda hunar-texnika bilim yurtlari tarmogʻi tez suratlar bilan rivojlantirildi. Albatta, bu jarayon respublika sanoati, qishloq xoʻjaligi, qurilish sohasi bilan ham

bevosita bog'liq yedi. Bu sohalar uchun malakali ishchilarni tayyorlash ishi yangi tashkil yetilgan "Uzprofobr" boshqarmasi zimmasiga yuklatildi[1:11]. O'quv muassasalari sonini ko'paytirish, yosh yigit-qizlarni o'qishga jalb yetish natijasida 1928-1932-yillarda fabrika-zavod bilim yurtlari (FZU, FZO) da o'quvchilar soni 800 nafardan (8 foizi xotin-qizlar) 8600 nafarga oshdi (16,9 foizi xotin-qizlar). Kichik shaharlarda bunday o'quvchilarning 75-80 foizini mahalliy millat yoshlari tashkil etardi[2:144]. Bora-bora bunday bilim maskanlari o'rta maxsus o'quv yurtlari (texnikumlar)ga aylantirilgan edi.

### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**

O'zbekistonda bugungi kunda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, ularni o'rta maktab va undan keyingi ta'lim bosqichlarida ma'lum bir mutaxassislikni puxta yegallashiga yerishish maqsadida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sovet davrida yaratilgan ilmiy-tadqiqotlar tashkil etib, ularning aksariyatida ko'rilayotgan davrda oliy ta'lim sohasiga oid amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari, oliy ta'lim tizimida va malakaliy kadrlar tayyorlash sohasidagi o'zgarishlar yoritilgan. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi va uning ko'rilayotgan davrdagi ahvoriga doir sovet hokimiyati yillarida ko'plab monografiya, risola, maqola, xujjatlar to'plami va xotira kitoblari chop etilgan. Bu tadqiqotlarda urushdan keyingi yillarda maorif muammolari madaniy qurilish jabhasining asosiy masalasi sifatida o'rganildi. Shuningdek bu davrda maorif tarixiga murojat ko'proq pedagog olimlar va shu soha amaliyotchilari tomonidan o'rganildi. Bunga E.Qodirovning tadqiqotlari misol bo'la oladi. Tadqiqotchining asarlari sovet davri mafkurasi ruhida yozgan bo'lsa-da, O'zbekistonda xalq maorifida ko'rilayotgan davrda ro'y bergan o'zgarishlar, tajribalarni tizimlik asosda, davriylik tamoyillaridan kelib chiqib bayon etishga harakat qilgan. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda maorif tizimida yuz bergan bir qator yangiliklar va o'zgarishlarni atroflicha bayon etishga harakat qilgan.

Respublikamizda shu maqsad yo'lida bugungi kunga qadar kasb-hunar ta'lim tizimini takomillashtirish, modernizatsiyalash va mazmunini yangilash maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida ancha ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu tizimni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar yaratildi va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. 1940-1941-o'quv yilida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Nukus, Qo'qon, Andijon, Namangan va Marg'ilon shaharlarida tibbiyot, qishloq xo'jalik, maktabgacha tarbiya, oziq-ovqat va yengil sanoat texnikumlari, Toshkent va Samarqand shaharlarida temir yo'l, veterinariya, savdo va irrigatsiya texnikumlari ochildi. Mazkur o'quv yilida O'zbekistonda 98 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari bo'lib, ularda 251 ming nafar yoshlar o'qigan edi[4:121].

### **Natijalar va muhokama (Results and Discussions)**

Ikkinchi jahon urushining suronli yillarida ham O'zbekiston SSR oliy o'quv yurtlari va texnikumlar o'z faoliyatini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq ho'jaligi, maorif, tibbiyot va boshqa sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo'lib hizmat qildi, biroq sohaga urush davrining qiyinchiliklari, byudjet taqchilligi, shuning barobarida aholining turmish darajasining og'irlashuvi kabi muammolar o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan edi.

O'zbekiston SSR Maorif ministirligining 1943-yil 8-sentyabrdagi №907 sonli buyrug'ida 1943-yil 23-avgustdagi SSSR XKSning 13986-R buyrug'idan kelib chiqib 1943-yil 1-sentyabrdan Toshkent birlashgan pedagogika va o'qituvchilar instituti, Buxoro, Andijon, Qo'qon va Xiva pedagogika uchilishilari bundan buyon Toshkent birlashgan ayollar pedagogika va o'qituvchilar instituti, Muqimiy nomidagi Qo'qon ayollar o'qituvchilar instituti deya, Lenin nomli Toshkent ayollar pedagogika texnikumi, Stalin nomli Samarqand ayollar pedagogika texnikumi, Buxoro ayollar pedagogika texnikumi, Andijon ayollar pedagogika texnikumi va Sverdlov nomidagi Xiva pedagogika texnikumlari deb qayta nomlandi[5:26].

1943-1944 o'quv yili uchun ayollar pedagogika o'quv yurtlariga qabul rejasi quyidagicha belgilangan edi: Toshkent ayollar pedagogika institutiga 549 nafar, Toshkent birlashgan ayollar pedagogika va o'qituvchilar institutiga 251 nafar, Qo'qon ayollar o'qituvchilar institutiga 246 nafar,

Toshkent ayollar pedagogika texnikumiga 273 nafar, Samarqand ayollar pedagogika texnikumiga 233 nafar, Qo‘qon ayollar pedagogika texnikumiga 142 nafar, Andijon ayollar pedagogika texnikumiga 226 nafar, Buxoro ayollar pedagogika texnikumiga 278 nafar, Xiva pedagogika texnikumiga 160 nafar talaba qabuli belgilangan bo‘lib, rejalar amalda bajarilgan edi[5:26/1].

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng erkaklar son jihatdan kamligi, ayollarni ta‘limga jalb etish darajasi pastligi sabab o‘qituvchilar tayyorlash tizimida kam sonli talabalar tahsil olgan. 1945-yili respublikada 10 ta pedagogika bilim yurtlari faoliyat ko‘rsatgan va bu muassasalarning kunduzgi bo‘limlarda 736 nafar o‘qituvchi tayyorlangan[5:17]. 1947-1948 o‘quv yiliga kelib, bilim yurtlarini tamomlagan o‘qituvchilar soni kunduzgi bo‘limlarda 1033 nafarga va sirtqi bo‘limlarda 711 nafarga yetgan[6:31]. Pedagogika o‘quv yurtlarining sirtqi va kechki bo‘limlarida 1946 yilda 4,5 ming nafar o‘qituvchi o‘qigan bo‘lsa, 1965 yilga kelib, ularning soni 12 ming nafarga yetgan[7:303].

Urushdan keyingi dastlabki yillarda bir qator yangi o‘rta maxsus o‘quv yurtlari o‘z faoliyatini boshladi. Birgina Qashqadaryo oblastida Qarshi madaniyat texnikumi, Qarshi va Yakkabog‘ qishloq xo‘jalik texnikumi, Qarshi maktabgacha bilim yurti va Shahrisabz pedagogika bilim yurti, Qarshi savdo texnikumi va boshqa o‘quv yurtlari tashkil etildi. Masalan, Qarshi shahrida N.I.Pirogov nomidagi Qarshi tibbiyot bilim yurti 1946-yilda ochilgan edi[9:72]. Bilim yurti umumiy va bolalar muassasalari uchun tibbiyot hamshiralari, akusherlar, feldsherlar, feldsher-laborantlar, sanitar feldsherlar kabi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlab yetishtirgan edi. 1947-1948 o‘quv yilida O‘zbekiston SSR maorif ministrligiga qarashli uchilishilarida 6201 nafar talaba taxsil olgan[5:12].

1953-1954 o‘quv yilid O‘zbekiston SSRda 90 tadan ortiq texnikum va boshqa o‘rta maxsus ta‘lim maskanlari mavjud bo‘lib, ularda 44,5 ming o‘quvchilar taxsil olgan edi[5:32].

1954-1955 o‘quv yilida O‘zbekiston SSRdagi 100 ta texnikum va boshqa maxsus o‘rta maktablarda 58 mingdan ortiq talaba o‘quvchilar o‘qib bilim malakalarini oshirdilar[10:64]. 1955-yilda 100 ta texnikum va boshqa maxsus o‘rta ta‘lim maskanlarida 58 ming kishi o‘qidi (1914-yilda esa – bitta texnikum bo‘lib, unda 86 kishi o‘qigan edi)[10:64].

Respublikada o‘rta maxsus ta‘lim sohasi ham ancha rivojlanib, 1956-yilga kelganda 85 ta o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida 55,3 ming o‘quvchi yoshlar ta‘lim-tarbiya oldi[11:232].

Respublikada 1958-yilga kelganda 86 ta maxsus o‘rta o‘quv yurtlari ishlab turgan edi. Shu jumladan 23 ta sanoat va qurilish bo‘yicha, 4 ta transport va aloqa, 28 ta qishloq xo‘jaligi, 8 ta iqtisodiyot va huquq, 11 ta sog‘liqni saqlash, 1 ta jismoniy tarbiya va sport, 10 ta san‘at va kinematografiya, 11 ta maorif o‘quv yurtlari mavjud bo‘lib, ularda 79 312 nafar o‘quvchi ta‘lim-tarbiya olgan edi[5:112].

Faqat 1957-1958 o‘quv yilining o‘zida maxsus o‘quv yurtlariga 27522 nafar o‘quvchilar qabul qilindi. Shulardan 11450 nafari sirtqi va kechki bo‘limlarga qabul qilingan edi[5:7].

Bu davrda respublikada professional texnika o‘quv yurtlarining tarmog‘i ham keng rivojlandi. 1957-1958 o‘quv yilida respublikada 80 ta professional-texnika maktablari bor edi. Shulardan 30 tasi qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash maktablari bo‘lib, qolganlari esa surilish texnikumi, hunar maktablari bo‘lib, ularda 22 ming nafar o‘quvchi yoshlar tahsil olgan[11:232]. Bu o‘quv yurtlari sanoat, qurilish, transport-alloqa va qishloq xo‘jaligi uchun malakali ishchi kadrlar tayyorlar edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda pedagogika bilim yurtlari ham ancha rivojlandi. 1956-1957 o‘quv yilida pedagogika bilim yurtlarida o‘quvchilar 6842 kishiga yetdi, ulardan 5018 nafari mahalliy millat yoshlari edi, shu jumladan 4109 nafari o‘zbek qizlari edi. Pedagogika bilim yurtlarini 1946-yilda 465 kishi bitirib chiqqan bo‘lsa, 1957-yili 3323 nafar o‘quvchi yoshlar bitirdi[12:119].

1950-yillar o‘rtalaridan pedagogika bilim yurtlarining bir qismi o‘zbek boshlang‘ich maktablariga rus tilidan va I-VII sinflarda jismoniy tarbiya dan dars berishga hamda bolalar uyi tarbiyachisi bo‘lib ishlash layoqatiga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash uchun ixtisoslashtirildi. Boshlang‘ich sinflardagi o‘quv-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash maqsadida 1957-1958 o‘quv yilidan respublika pedagogika institutlarida I-IV sinflarga o‘qituvchilar tayyorlovchi fakultetlar

ochildi. Shu munosabat bilan 1957-yildan boshlab, pedagogika bilim yurtlarining soni asta-sekin kamayadi.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**

Bu davrda, shuningdek, o'рта maxsus ta'lim tizimida bir necha kasblar bo'yicha malakali ishchilar tayyorlab beruvchi maxsus, ixtisoslashtirilgan bilim yurtlari faoliyatini yo'lga qo'yish ishlariga jiddiy qaralmadi. Bu tizimda ko'proq traktorchi-mashinist, payvandlovchi, g'isht teruvchi, bo'yoqchi, sartarosh, tikuvchi, to'quvchi, slesar, poyabzalchi singari kasblar o'rgatilar edi, xolos. Xalq xo'jaligini zamonaviy taraqqiyotiga zarur bo'lgan o'lchov asboblari va avtomatlari, programma asosida boshqariladigan stanoklar va boshqa shunga o'xshash avtomatlashtirilgan stanoklar va qurilmalar bilan ishlovchi mutaxassislar juda kam tayyorlandi. Tayyorlangan kadrlar ham bir ixtisosga ega bo'lib, faqatgina korxonalarining kundalik ehtiyojini qondirish uchun xizmat qila olardi xolos. Shuningdek, kadrlarda o'z qobiliyatini namoyish etish imkoniyati ham cheklangan edi. Ayniqsa, hunar-texnika ta'limi tizimida mahalliy millat yoshlarini o'qitishning ahvoli e'tibordan chetda qolganligi oqibatida yuqoridagi istiqbolli kasblarni egallagan ixtisoslikdagi yuqori malakali kadrlarga, ayniqsa, mahalliy yosh ishchi kadrlariga muhtojlik kundan-kunga ortib borgan edi.

Xullas, ko'rilayotgan davrda O'zbekiston SSRda xalq xo'jaligining barcha sohalarini talablaridan kelib chiqib, o'рта maxsus ma'lumotga ega bo'lgan malakali kadrlar bilan ta'minlovchi hunar-texnika ta'lim tizimini yo'lga qo'yishda bir qator ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qilindi. Shuningdek, bu davrda mahalliy millat yoshlarini o'рта maxsus ta'lim dargohlariga o'qishga tortish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida bo'lganidek o'рта maxsus ta'lim sohasida ham katta ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirilishga harakat qilindi. Lekin amalda rejalashtirilgan ishlar sifatli va samarali tashkil yetilmadi. Bu davrda ham ma'muriy buyruqbozlik siyosati yanada avj oldi, sifat emas, son ketidan quvish, kadrlar tayyorlash siyosatida ham ustuvor yo'nalish bo'lib qolgandi. Sovet hukumatining ta'limga munosabati, ta'lim-tarbiya jarayonining o'ta darajada mafkuralashtirilishi milliy qadriyatlarga e'tibor bermaslik, kadrlarning jamiyatdagi o'rni nisbatan salbiy ta'sirini o'tkazdi.

### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Xursandov M.X. Razvitiye professionalno-texnicheskogo obrazovaniya v Uzbekistane. – Tashkent, 1973. –S. 11.
2. Istoriya rabochego klassa. –Tashkent, 1964. Tom . –S. 144.
3. Дегтяр Б.Т., Хатамов Н.Т. Ўзбекистонда ўқув-педагогика адабиёти нашр қилиш тарихига доир 1936-1975. Тошкент, 1972.
4. Узбекистан за 40 лет советской власти. Сбор. ст. –Ташкент, 1958. –С. 121.
5. Ўз МА. Р-94-фонд, 5-рўйхат, 4139-иш, 36-варак.
6. Эргашев Қ. Ўзбекистонда халқ таълимининг ривожланиш тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – Б. 31.
7. Ўзбекистон ССР тарихи (қадимги даврлардан ҳозирги кунларгача) / Мухаррир И.М. Муминов. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 303.
8. Народной хозяйство Узбекской ССР за 1987 г. Стат. Ежегодник. –Ташкент: Узбекистан, 1988. –С.266
9. Қашқадарё области. –Тошкент: Ўзбекистон, 1974. –Б. 72.
10. Акрамов З. Ўзбекистон халқ хўжалиги олтинчи беш йилликда. –Тошкент: Ўздавнашр, 1957. –Б. 64.
11. Турсунов Х., Бекназаров Н. Ўзбекистон ССР тарихи. Педагогика институтларининг тарих факультетлари студентлари учун ўқув қўлланма. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982. –Б. 232.
12. Қодиров Э. Ўзбекистонда халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари. – Тошкент: Ўз ССР давлат ўқув-педагогика нашриёти, 1957. –Б.119.



**Tadqiqot.uz**

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000